# TADBIRKORLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASHDA RAQAMLI PLATFORMALARNING IQTISODIY MOHIYATI, FUNKSIYALARI VA IQTISODIYOTDAGI O‘RNI

***Nasrullaev Hikmatullo Habibulloevich***
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*mustaqil tadqiqotchisi*
*https://orcid.org/0009-0006-2177-2052*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning raqobatbardoshligini oshirishda raqamli platformalarning iqtisodiy mohiyati, asosiy funksiyalari hamda milliy iqtisodiyotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Raqamli ekotizimlar va platformaviy model orqali biznes jarayonlarini maqbullashtirish, tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish, davlat va xususiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda raqamli platformalarning kichik va o‘rta biznes faoliyatini jadallashtirishdagi roli asoslab berilgan bo‘lib, ularni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amplik xulosalar va takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli platformalar, tadbirkorlik, iqtisodiy mohiyat, ekotizim, tranzaksiya xarajatlari, raqamli iqtisodiyot, biznesni qo‘llab-quvvatlash, raqobatbardoshlik, raqamli xizmatlar..

**Kirish:** Jahon iqtisodiyotining raqamlashuvi sharoitida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish yondashuvlari tubdan o‘zgarmoqda. Zamonaviy bozor munosabatlarida raqamli platformalar nafaqat axborot va xizmatlar almashinuvi vositasi, balki tadbirkorlik sub’ektlarini samarali qo‘llab-quvvatlash, ularning bozorga kirib borishini yengillashtirish hamda raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim iqtisodiy instrumentiga aylandi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda raqamli platformalarning iqtisodiy mohiyati biznes yuritish xarajatlarini, ayniqsa tranzaksiya va axborot qidirish xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirishida namoyon bo‘ladi. Platformaviy konsepsiya asosida yaratilgan interaktiv va integratsiyalashgan tizimlar davlat, moliya-kredit tashkilotlari hamda biznes sub’ektlari o‘rtasidagi muloqotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, shaffof va tezkor amalga oshirish imkonini beradi.

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan chuqur transformatsiya jarayonlari raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga jadal kirib borishi bilan tavsiflanib, iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari va mexanizmlarini shakllantirmoqda. Xuddi shuningdek, raqamli platformalar iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlarini tezlashtirish, tadbirkorlik sub’ektlarining bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, tranzaksion xarajatlarni qisqartirish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli platformalarning iqtisodiy mohiyati, ularning funksional xususiyatlari va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdagi ahamiyatini nazariy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik sub’ektlarining raqobatbardoshligini ta’minlash faqatgina moddiy resurslarga emas, balki axborot, ma’lumotlar bazasi, elektron xizmatlar va platforma asosida ekotizimlardan samarali foydalanish darajasiga ham bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Zero, mamlakatimizda ham tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, innovatsion muhitni shakllantirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish, davlat boshqaruvi va tadbirkorlik muhitini yangi bosqichga olib chiqishning muhim omili hisoblanadi”[1].

[1] Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга Мурожаатнома. – Тошкент, 2020. – Б. 31.

Raqamli platformalar nafaqat elektron savdo va moliyaviy xizmatlarni tashkil etish, balki ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar va davlat institutlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi zamonaviy infratuzilma sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, biznes yuritish uchun qulay sharoit yaratish va innovatsiyalarni joriy etish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim shartidir”[2]. Bu esa raqamli platformalarni tadbirkorlikni rag‘batlantiruvchi yangi institutsional mexanizm sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro tajriba tahlillari ham platforma asosida iqtisodiyotning ahamiyati tobora ortib borayotganini tasdiqlamoqda. Jahon banki mutaxassislari ta’kidlashicha, “raqamli platformalar kichik biznes sub’ektlariga yangi bozorlarga chiqish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish va ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyalashish imkoniyatini kengaytiruvchi muhim omil hisoblanadi”[3]. Shu bilan birga, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ekspertlari fikricha, “platforma asosida modellar iqtisodiyotda innovatsiyalarni jadallashtirish va yangi qiymat yaratish jarayonlarini rag‘batlantiradi”[4]. BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) tomonidan e’tirof etilishicha, “raqamli platformalar iqtisodiy o‘sishning yangi drayveriga aylanib, kichik va o‘rta biznesning global qiymat zanjirlariga qo‘shilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda”[5].

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar ham mazkur jarayonlarning huquqiy asosini mustahkamlamoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida “2030 yilga qadar raqamli iqtisodiyot ulushini

[2] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2021. – Б. 218.
[3] World Bank. World Development Report 2021: Data for Better Lives. – Washington, DC: World Bank, 2021. – P. 147.
[4] OECD. An Introduction to Online Platforms and Their Role in the Digital Transformation. – Paris: OECD Publishing, 2019. – P. 24.
[5] UNCTAD. Digital Economy Report 2021. Cross-border Data Flows and Development. – Geneva: United Nations, 2021. – P. 12.

keskin oshirish va davlat xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi”[6], deb belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi Qonunida “elektron axborot tizimlari orqali tuziladigan savdo munosabatlari iqtisodiy faoliyatning muhim shakli hisoblanadi”[7], deb qayd etilgan. Bundan tashqari, “”Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’ektlarining raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlaydi”[8], deb ta’kidlangan.

Prezidentimiz o‘z ma’ruzalarida iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosiy sharti sifatida raqamlashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish zarurligini ta’kidlab, “”Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarga tayangan holda amalga oshiriladi”[9], deb qayd etgan. Bu esa tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatida raqamli platformalarning iqtisodiy ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rganishni taqozo etadi. Raqamli platformalarning iqtisodiy mohiyati, funksiyalari va tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rnini nazariy jihatdan asoslash, ularning iqtisodiyotdagi ta’sir mexanizmlarini aniqlash va platforma asosida iqtisodiyotning institutsional xususiyatlarini tadqiq etish mazkur paragrafning asosiy ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishning yangi shakllari vujudga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli platformalar tadbirkorlar, iste’molchilar, investorlar hamda davlat institutlarini yagona axborot muhitida birlashtiruvchi muhim texnologik infratuzilma sifatida namoyon bo‘lmoqda.

[6] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ–6079-сон «Рақамли Ўзбекистон – 2030» стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги Фармони.
[7] Ўзбекистон Республикасининг «Электрон тижорат тўғрисида»ги Қонуни. ЎРҚ–792-сон, 29.09.2022 й.
[8] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ–6079-сон Фармони билан тасдиқланган «Рақамли Ўзбекистон – 2030» стратегияси.
[9] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислоҳотлар йўлини қатъий давом эттирамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш маросимидаги нутқ. – Тошкент, 2021. – Б. 17.

Ularning faoliyati axborot almashinuvini tezlashtirish, tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish, bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni soddalashtirish va innovatsion faollikni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

**Takliflar.**

“Mahalla yettiligi” faoliyatida foydalanilayotgan axborot tizimlari va elektron platformalarni o‘zaro integratsiya qilish, ma’lumotlar bazalarini yagona standart asosida shakllantirish hamda idoralararo axborot almashinuvini avtomatlashtirish lozim;

ijtimoiy reestrga kiritilgan oilalar farzandlarini zamonaviy kasb va raqamli ko‘nikmalarga o‘qitish, ularda tadbirkorlik bilan shug‘ullanish ko‘nikmasini shakllantirish orqali bandligini ta’minlash hamda raqamli tengsizlikni qisqartirish bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini joriy etishga lozim;

o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ularning tomorqa xo‘jaligi va oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish hamda daromad manbalarini kengaytirishda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanishga oid me’yorlar takomillashtirish kerak;

kichik biznes sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash, eksport-import operatsiyalarida sug‘urtalash va sertifikatlash xarajatlarini qisqartirish hamda davlat xizmatlarini raqamlashtirish;

mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash hamda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan kredit ajratish jarayonlarini raqamlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish kerak;

tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, xotin-qizlarning biznes loyihalarini raqamli monitoring asosida moliyalashtirish hamda ularni onlayn xizmatlar orqali qo‘llab-quvvatlash kerak;

tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, ma’muriy

tartib-taomillarni soddalashtirish hamda davlat xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**ADABIYOTLAR/LITERATURA/ LITERATURE:**

Sweepstakes Statistics to Support Your 2023 Giveaway Marketing Strategy, September 20, 2022, https://www.sweepsify.com/sweepstakes-statistics/;

New research shows Gen Z are immersing themselves in the world of investing, 24 May, 2023, https://www.cfainstitute.org/about/press-room/2023/finra-cfa-institute-gen-z-research.